

**BOSHLANG'ICH TA'LIMDA MEDIA VOSITALARIDAN
FOYDALANISH TEXNOLOGIYASI****Gapparova Nozima Farxod qizi**

Navoiy innovatsiyalar universiteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi

1-Boshlang'ich talabasi

Ilmiy rahbar pedagogika fanlari bo'yicha

Falsafa doktorin (PhD) **Ismoilova Malika Erkinovna**

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim jaroyonida media vositalaridan foydalanish texnologiyasining mazmuni ahamiyati va samaradorligi yoritilgan. Media vositalarining turlari ularni dars jarayonida qo'llash usullari hamda o'quvchilarning bilim olish faolligini oshirishdagi roli tahlil qilingan. Shuningdek boshlang'ich ta'lim sinf o'qituvchisining media texnologiyalaridan oqilona foydalanishdagi vazifalari ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, media vositalari, multimedia texnologiyalari, interaktiv ta'lim, axborot texnologiyalari

Аннотация : В данной статье рассматриваются содержание и эффективность использования медиа-средств в процессе начального образования. Проанализированы виды медиа-средств методы их применения на уроках а также их роль в повышении познавательной активности учащихся. Особое внимание уделяется роли учителя начальных классов в рациональном использовании медиа- технологий в учебном процессе

Ключевые слова .начальное образование ,медиа -средства ,мультимедийные технологии, интерактивное обучение ,информационные технологии.

Abstract: This article discusses the content significance and effectiveness of using media tools in the primary education process. The types of media tools

methods of their application in lessons and their role in increasing students learning motivation are analyzed. Special attention is given to the role of the primary school teacher in the effective and rational use of media technologies.

Key words: primary education, media tools, multimedia technologies, interactive learning, information technologies.

Kirish: Zamonaviy ta'lim tizimida axborot -kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) tez sur'at bilan rivojlanib, ta'lim tizimining barcha bosqichlariga chuqur kirib kelmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'limda media vositalardan foydalanish jarayonini qiziqarli, interaktiv va samarali qilishga imkon beradi.

Asosiy qisim:

Media vositalari -bu ma'lumot yetkazish, saqlash va vizual yoki audiovizual shaklda namoyish qilishga xizmat qiluvchi texnik va dasturiy vositalardir. Boshlang'ich ta'limda media vositalaridan foydalanish o'quvchilarning bilim olish motivatsiyasini oshiradi, diqqatini jamlashga yordam beradi va murakkab tushunchalarni oson tushunishga xizmat qiladi.

Media vositalaridan foydalanishning pedagogik ahamiyati ham katta. Ular orqali o'quvchilar mustaqil fikrlashni, muommoni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi, o'zini ifoda etish va ijodiy faoliyatga jalb qilish imkonini beradi. Shuningdek, media vositalari ta'lim jarayonini individualizatsiyalashga ham xizmat qiladi. Har bir o'quvchi o'z tezligini va qiziqishiga qarab mavzuni o'rganishi mumkin. Bu esa o'z navbatida, bilimlarning mustahkamligini oshiradi va o'quvchilarda ta'limga bo'lgan ijobiy munosabatni shakllantiradi. Boshlang'ich ta'limda media vositalaridan foydalanish texnologiyasi zamonaviy ta'limning ajralmas qismi bo'lib, o'quvchilarning bilim olish jarayonini samarali, interaktiv va qiziqarli qilishga xizmat qiladi.

Boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan munasabati, mustaqil fikrlashi va o'qishga qiziqishi shakllanadigan muhim davr hisoblanadi. Shu sababli ushbu bosqichda ta'lim jarayonini samarali tashkil etish,

zamonaviy pedagogik yondashuvlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Media vositalari ana shunday samarali pedagogik vositalardan biri sanaladi.

Media vositalari deganda axborotni vizual, audio va audiovizual shaklda yetkazishga xizmat qiluvchi texnik hamda dasturiy vositalar tushuniladi. Boshlang'ich ta'limda keng qo'llaniladigan media vositalariga kompyuter va planshetlar, interaktiv doskalar, multimedia taqdimotlar, video va audio materiallar, elektron darsliklar hamda ta'limiy o'yinlar kiradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari ko'proq ko'rgazmalilik va amaliy faoliyat asosida bilimni o'zlashtiradilar. Media vositalari ta'lim jarayonida ko'rgazmalilik tamoyilini amalga oshirishga keng imkoniyat yaratadi. Masalan, animatsiyalar, rasmlar va videolar orqali murakkab tushunchalarni sodda va tushunarli shaklda yetkazish mumkin.

Media vositalaridan foydalanish o'quvchilarning diqqatini jamlashga, xotirasini rivojlantirishga hamda mustaqil va mantiqiy fikrlashini shakllantirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'z nutqlarida ta'lim tizimini rivojlantirishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish muhimligini alohida ta'kidlab keladi. Uning fikricha, ta'lim jarayonida raqamli va media vositalardan foydalanish o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshiradi hamda ta'lim sifatini yangi boshqichga olib chiqadi.

Prezident SH. Mirziyoyev boshlang'ich ta'limni rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor qaratib, bolalarda yoshligidan mustahkam bilim va zamonaviy ko'nikmalarni shakllantirish zarurligini qayd etadi. Bu jarayonda media vositalari va raqamli texnologiyalar muhim pedagogik vosita sifatida qaraladi.

Xulosa: Boshlang'ich ta'limda media vositalaridan foydalanish texnologiyasi ta'lim samardorligini oshiruvchi zamonaviy metodlar majmuasidir. U interfaol doskalar, elektron darsliklar, ta'limiy videolar va internet resurslarini o'z ichiga olib,

o'quvchilarning tasavvurini kengaytiradi, motivatsiyasini oshiradi va darslarni qiziqarli qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Komenskiy Ya.A.Buyuk didaktika.-Moskva: Pedagogika,1982.-42-52-betlar
- 2.Ushinskiy K.D.Inson -tarbiya predmeti sifatida.-Moskva: Pedagogika ,1974.-78-85-betlar
- 3.Vygotskiy L.S.Tafakkur va nutq.-Moskva: Pedagogika ,1982,-112-120-betlar.
- 4.Prezident.Shavkat Mirziyoyev. O'zbekiston Respublikasida ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid chora -tadbirlar to'g'risida.
- 5.Avliyoqulov A.Zamonaviy pedagogic texnologiyalar.-Toshkent ; O'qituvchi, 2000,-56-63 betlar.